

**HARBIY XIZMATCHILARDA SUITSIDAL XULQ-ATVOR NAMOYON
BO`LISHI SHAKLLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI**

Zulunov Muhammadzar Zokirjon o`g`li

*Milliy gvardiya faoliyatini psixologik ta`minlash
markazi katta ofitseri-psixolog*

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan suitsidal xavf-hatarlarning namoyon bo`lishi, psixologik omillari va shart-sharoitlari, ularga qarshi ummunitet hosil qilish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar. Harbiy, askar, ruh, jangovar, urush, xulq-atvor, suidsial, agressiv, biologik, psixopatologik, psixologik, onkologik, travmatizm, genetik, instinkt, asab tizimi, stress, depressiya.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМ ПРОЯВЛЕНИЯ
СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ**

Зулунов Мухаммадзар Закиржон угли

*Старший офицер центра психологического
обеспечения деятельности Национальной
гвардии-психолог*

Аннотация. В данной статье рассматриваются проявления, психологические факторы и условия возможных суицидальных опасностей у военнослужащих, формирование против них иммунитета.

Ключевые слова. Военная, солдатская, душевная, боевая, военная, поведенческая, суицидальная, агрессивная, биологическая, психопатологическая, психологическая, онкологическая, травматическая, генетическая, инстинктивная, нервная система, стресс, депрессия.

**PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF FORMS OF MANIFESTATIONS OF
SUICIDAL BEHAVIOR IN MILITARY PERSONNEL**

Zulunov son of Muhammadzar Zakirjan ogli

*Senior officer of the Center for psychological
support of the activities of the National guard-
psychologist*

Annotation. *This article will talk about the manifestation, psychological factors and conditions of possible suicidal risks in military personnel, the formation of a community against them.*

Keywords. *Military, soldier, spirit, combat, war, behavior, suicidal, aggressive, biological, psychopathological, psychological, oncological, traumatism, genetic, instinct, nervous system, stress, depression.*

Har qanday tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz – xalqimiz, mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqonidir. Shuning uchun biz hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratyapmiz. Ya’ni, har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g’urur kuchli bo’lishi kerak. Milliy ruh – bu yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo’lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo’ladi. Kelajakda harbiy bo’lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg’usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O’z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g’amxo’rliigi va e’tiboridan oladi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O’zbekiston Respublikasi prezidenti,
Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo’mondoni.**

KIRISH

Ming yillikning XX asrida insoniyat ulkan iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o’zgarishlar va hodisalarga guvoh bo’ldi. Ko’pgina davlatlarning vayronagarchiligi va millionlab insonlarning o’limiga sababchi ikkinchi jahon urushi; dunyoning mavjudligiga rahna soluvchi sovuq urush davri; kommunizm g’oyasi va uning inqirozi; televizor, internet, kosmik raketalar kabi ilmiy va texnik kashfiyotlar; atrof-muhit muammolarining globallasuvi, ya’ni suv va havoning ifloslanishi, ozon qatlaminig yemirilishi va havoning notabiiy tarzda isib ketishining butun jahon miqyosida kechishi va hokazolar insoniyatning ko’z oldida sodir bo’ldi va bo’lmoqda.

Bugungi davr informatsion axborot texnologiyalari davri bo’lib hisoblanadi. Bu davr taraqqiyot, inson va uning ijtimoiy psixologik tuzilishini yanada murakkablashtirdi. Bunda, inson qudrati va uning imkoniyatlari yanada ortishi natijasida, odam o’zini–o’zi yo’q qilib yuborish darajasiga borib yetdi. Turli xildagi yangidan–yangi qurollar (yadroviy, bakteriologik, lazer v.b.) sinovlari va “Sovuq urush”ning XXI asrda ham “Mafkuraviy urush” sifatida davom etishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy holatlar shaxs va uning ijtimoiy psixologik tuzilishiga ta’sir etib kelmoqda.

Axborot texnologiyalari davrida yashayotgan inson juda ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirishi, ularga javob berib borishi, ma'lumotlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolarini hal qilib borishi oqibatida, kundalik ijtimoiy muammolar uning ruhiy holati, asab tizimiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Shaxs albatta, jamiyatda yashash va o'z o'rnini topish uchun yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda turli qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy holdir.

Ba'zi holatlarda inson o'lishga emas, balki, o'z muammolariga boshqalarning e'tiborini qaratishga harakat qiladi, shuningdek, stress holatidan chiqishni xohlaydi. Juda ko'p harbiy xizmatchilarda suitsidga aloqador fikrlar xizmatgacha bo'lgan davrda tug'ilgan bo'lib, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklar ushbu fikrlarni amalga oshirishga turtki vazifasini o'taydi, xolos. Kichik yoshdagi kishilarda suitsidal xatti-harakatlar qiyin vaziyatlar ta'sirida paydo bo'ladi. Suitsid oldi holatlari bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi.

Jangovar vaziyatlarda har kungi xavf-xatar ta'sirida ba'zi bir harbiy xizmatchilarda hayotni qadrlash tuyg'usi zaiflashadi, shuningdek, xavf-xatarni his qilish pasayadi (o'tmaslashadi). O'zini saqlash instinkti zaiflashadi, bu esa suitsidal fikrlarning amalga oshirishini yengillashtiradi. Urush vaqtida ba'zi askarlarning o'zlarini o'limga olib keluvchi qaltis harakat qilishlarini shu bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, urush shaxsda agressivlikni, shafqatsizlikni (dushmanga nisbatan) tarbiyalaydi. Ulardagi ushba sifatlar muammoli vaziyatlarda atrofdagi kishilarga ham qaratilishi mumkin.

Jumladan, jamiyat hayotida jiddiy siyosiy o'zgarishlar yuz berganida inson o'ziga, o'zligiga yanada teranroq nazar tashlashga intilib qoladi. Inson umri va hayoti past-baland, egri-bukri, tekis va notekis so'qmoqlardan iborat. Bu holat hayotning o'ziga xos bo'lgan sinovidir. Bugun shaxs psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini, o'z iqtidorini bilish, har qanday yosh davrida ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda. Harbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan sohalarda xizmat olib borayotgan shaxslar uchun psixologik bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab, keyingi 10 yillarda harbiy sohalarda ham suitsidal muammolar ko'payib borayotganligi buning asosiy sababi bo'lib kelmoqda. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra o'lim sabablariga ko'ra suitsid yurak qon tomir, onkologik va travmatizmdan keyin 4-o'rinni egallashi tashvishli holatdir. Har yili dunyo aholisining millionga yaqin kishisi o'z joniga qasd qiladi. Natijada bularning 80% o'lim bilan yakunlanadi.

Ijtimoiy psixologiyada suitsid va uning sabablari, uning oldini olish choralari hamon muammoligicha qolmoqda. Uni atroflicha o'rganish, ayniqsa, suitsid sabablarini tahlil qilish va uni kamaytirish bugungi kunda zamonaviy psixologiyaning

dolzarbligi va ahamiyatli mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda. Tahlillar. O‘z joniga qasd qilish yoki suitsid bir taraflama harakat bo‘lib, unda oxiriga yetkazilmagan holatlar ham kuzatiladi. Ehtiyotsizlik oqibatida yoki o‘zini bilmay, anglamay sodir qilingan holat – o‘z joniga qasd qilish (suitsid) jarayoni deb hisoblanmaydi. Balki, baxtsiz xodisa toifasiga kiritiladi. O‘z joniga qasd qilish yoki o‘zini–o‘zi o‘ldirish holati azal–azaldan kishilik jamiyatida mavjud bo‘lgan holat hisoblanadi. Bu haqda ko‘plab tarixiy va etnografik ma‘lumotlarda aks ettirilgan. Bunga misol qiladigan bo‘lsak, qadimgi yapon Samuraylari, ular uchun asir tushishdan ko‘ra o‘zini–o‘zi o‘ldirish bu sharaf hisoblangan, yoki qadimgi Misr malikasi Kleopatriya ham Rim iste‘losidan keyin o‘limni afzal bilgan, yoki arab bosqiniga qarshi kurashgan Muqanna v.b. Suitsid holatlarini qayd qilib boruvchi dunyodagi eng katta institut Shvesiyada joylashgan bo‘lib, uning hisob-kitoblariga ko‘ra Markaziy Yevropa davlatlari bu borada peshqadam ekanligini ta’kidlashmoqda.

Hozirgacha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra shaxs suitsid haqidagi o‘z rejalarini topishga «kalitlar» va ogohlantirishlar beradi. O‘z joniga qasd qilishni o‘ylaganlarning 10 tadan 8 tasi atrofdagilarga bu haqda doimo bildirishga harakat qilib borishgan. O‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lganlarning ko‘pchiligi o‘z harakatlarini avvaldan o‘ylab chiqishadi. Ular ko‘pincha o‘zlarini o‘ldirishdan oldin o‘z niyatlarini atrofdagilarga bildirishadi. Suitsidlarning asosiy foizi kuchli depressiv holatda sodir etiladi. Depressiv holatda bo‘lgan insonlar vaziyatni nazorat qilish va ushlab turish maqsadida spirtli ichimliklardan yoki bo‘lmasa turli narkotik moddalardan foydalanishadi. Ushbu vositalar shaxsda voqelikni buzib idrok etishga olib keladi.

Biologik konsepsiya doirasida suitsidal xulq-atvor shakllanishining genetik, fiziologik va boshqa organizmlar hayot faoliyati parametrlari ning asosiy prediktorlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu yo‘nalish namoyondalarining hisoblashicha, ba’zi bir shaxslar biologik yoki psixik buzilishlar natijasida suitsidga alohida moyilligi bor. Bir qator mualliflar fikricha, autodestruktiv xulq-atvor shakllanishida genetik omilning ahamiyati tasdiqlanganki, bu o‘z joniga qasd qiluvchilarning qarindoshlari orasida suitsid ko‘proq sodir etilishi bilan kechadi. Biroq, psixodinamik va klinik-psixologik yondashuv namoyondalari fikricha, suitsid sabablarini genetik asoslarda emas, balki yaqin insonini o‘z joniga qasd qilish faktining psixogenetik ta’sirida, uning qarindoshlar xulq-atvoriga modellashtirilgan ta’sir o‘tkazayotganligida deb qaraladi.

Suitsid yoxud o‘z joniga qasd qilish asrlar davomida jiddiy ijtimoiy muammo bo‘lib kelgan. XX asr boshida A.F. Koni ta’kidlagandek, “.....o‘z joniga qasd qilish yakka hodisa bo‘la olmay, balki yaxlit ijtimoiy hodisaga aylanib qolib, ushbu vaziyatni chuqur o‘rganish va unga qarshi samarali kurash olib borishni talab qilmoqda”. O‘z joniga qasd qilish muammosi (suitsid) autoagressiyaning so‘nggi namoyishi sifatida jamiyat rivojlanishining tarixi davomida mavjud bo‘lgan. Ammo hozirgi vaqtgacha suitsidal xulq-atvorning tabiatini izohlab beruvchi birorta yaxlit nazariya yaratilmagan.

Suitsid fenomenini izohlab beruvchi va sabablarni izohlovchi turli qarashlar mavjud. Ko'pgina nazariy konsepsiyalar o'rtasida asosiy farqlarni ajratib olish mumkin: biologik, psixopatologik, psixologik va ijtimoiy.

XULOSA

Harbiy xizmat sharoitida amalga oshiriladigan suitsidal xatti-harakatlarning 80 foizi muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ularning 2/3 qismi esa xizmatning birinchi yarmini o'tayotgan askar va serjantlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuni aytib o'tish kerakki, o'q otish qurollari vositasida amalga oshirilayotgan suitsidlar soni yildan- yilga oshib bormoqda. Ularning 75 foizi esa bevosita postlarda yoki qorovullik xizmatini o'tash jarayonida amalga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar tomonidan suitsid hodisalarining sodir etilishida alkogolli ichimliklar ichish ham katta rol o'ynaydi. Inson spirtli ichimliklar iste'mol qilganda o'zini o'ldirish haqidagi fikrlarning kelishi osonlashadi. Jami suitsid hodisalarining 2/3 qismi shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarning yetarli darajada olib borilmasligi oqibatida yuz bermoqda. Suitsidga intilgan harbiy xizmatchilarning 50 foizi jamoatchilik tadbirlarida umuman ishtirok etmas ekan. Demak, askarlarni jamoatchilik ishlariga faolroq jalb qilish yo'li bilan ham suitsidning oldini olish mumkin bo'ladi. Odatda, suitsid qilish ehtimoli bor askarlar quyidagi belgilarga ega bo'ladilar:

1. Hech kimga qo'shilmasdan, o'zi bilan o'zi bo'lishlik;
2. Hissiyotga o'ta beriluvchanlik;
3. Xudbinlik, o'zini-o'zi yaxshi ko'rish;
4. Omadsizlik;
5. Boshqalardan ajralib qolish;
6. Atrofdagilarning hurmati va mehribonchiligidan mahrum bo'lish va hokazo.

Suitsidal xatti-harakatlarni oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish juda ham qiyin muammo hisoblanadi. Shaxs tomonidan aytilgan suitsidal fikr-mulohazalar va qilingan xatti-harakatlar prognostik ahamiyatga ega. Shaxsiy tarkib bilan ishlaydigan ofitser va komandirlar 18-20 yoshdagi yigitlarning ruhiy xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak.

Ular quyidagilar:

1. Shaxs sifatida hali to'la shakllanmaganlik, ushbu jarayonning jadal sur'atda davom etayotganligi;
2. Emotsional jihatdan qo'zg'aluvchanlikning yuqoriligi - o'ta sezuvchanlik;
3. Bir yoqlama fikr yuritish;
4. Hayotiy tajribaning yo'qligi va boshqalar. Harbiy xizmatchining qanday oilada voyaga yetganligi ham muhim ahamiyatga ega:
- to'laqonli oila yoki muammoli oila.

Ushbu oilada yoki qarindoshlar orasida suitsid sodir etilganmi yoki yo'qmi? Bu ham katta ahamiyatga ega. Xizmat jarayonida harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan

jismoniy va ruhiy yuklamani asta-sekin oshirib borish lozim. Odatda, suitsidni aniqlashda va oldini olishda quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘yiladi:

- o‘z-o‘zini o‘ldirishning oldini olish muammosiga yetarlicha e‘tibor qaratmaslik;

- askarlarning harbiy xizmatga chaqirilishidan to zahiraga bo‘shatilgunlarigacha bo‘lgan davr ichida ularni uzluksiz ravishda psixologik kuzatishning yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- komandirlarning o‘z qo‘l ostidagilarni yaxshi bilmasliklari, tarbiyaviy tadbirlarning nomigagina o‘tkazilishi;

- suitsidga sabab bo‘luvchi haqoratlash, qiynash kabi faktlarni o‘z vaqtida o‘rganmaslik va chora ko‘rmaslik;

- sog‘lom turmush va maishiy sharoitlarning yo‘qligi, spirtli ichimliklar ichish holatlarining tez-tez bo‘lib turishi;

- komandirlarning o‘z qo‘lostidagi harbiy xizmatchilar oilalaridagi ahvolni bilmasligi.

Harbiy xizmat sharoitida yuz beradigan suitsid hodisalarining asosiy sababi, ijtimoiy omillar va profilaktika ishlarining yomon yo‘lga qo‘yilganligi. Suitsidga etaklovchi ijtimoiy omillar quyidagilar:

- xizmatdagi qiyinchiliklar;
- harbiy jamoalarda soglom ma‘naviy-psixologik muhitning yo‘qligi;
- komandirlarning o‘z qo‘lostidagilar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilmasliklari;
- harbiy xizmatchilar uy va maishiy sharoitlarini yaxshilash sohasidagi ishlarning yetarli darajada emasligi;

- muddatli harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi nizomga zid o‘zaro munosabatlar;
- alkogolli ichimliklar va narkotik moddalarni ise‘mol qilish va boshqalar.

Suitsidning oldini olishga yo‘naltirilgan ish shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Hamma suitsid hodisalarini hisobga olish, yig‘ish, ularni turli parametr - mezonlar bo‘yicha tizimlashtirish: shaxsiy tarkib tabaqalari bo‘yicha;

xizmat lavozimi bo‘yicha;

millati; oiladagi tarbiyasi;

ma‘lumoti;

dinga munosabati va hokazo.

2. Eng ko‘p ahamiyatli bo‘lgan vaziyatlar, jarayonlar, suitsid ko‘p sodir etiladigan joy, vaqt va amalga oshirish usullari, ushbu suitsidlarning bo‘linmadagi axloqiy-psixologik muhitga ta‘sirini aniqlash;

3. Har xil darajadagi komandirlarning samarali tarbiyaviy ishlarni olib borishdagi ishtirokini belgilash; harbiy jamoalarda o‘zaro sog‘lom munosabatlarni shakllantirish; harbiy xizmatchilardagi stresslarni yo‘qotish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish;

4. Olingan natijalarni umumlashtirish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish. Harbiy qismlarda suitsidning oldini olish bilan bog‘liq eng muhim vazifalar quyidagilar:

- suitsidga olib keluvchi sabablarni o‘z vaqtida aniqlash va tugatish;
- vaqtida da’vo choralarini ko‘rish.

Umuman, suitsidal xulq shakllanishini o‘rganish muammosi ko‘p tarmoqli va keng ko‘lamli ekanligi bilan ajralib tursada, mazkur muammo bo‘yicha talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini alohida ta’kidlash mumkin. Aytish joizki, ko‘pgina tadqiqotlarda odatda tadqiqot ob’ektini xotirasini yo‘qotish natijasida o‘z joniga qasd qilishga uringanlar va psixonevrologik dispanserlar ro‘yxatida turgan shaxslar tashkil etgan. Suitsidentlarning qolgan guruhleri esa, ayniqsa o‘z joniga qasd qilganlar, ilmiy tadqiqot nazaridan chetda qolib ketmoqda. Shu bois suitsidal xavfning shaxs omillarini aniqlash muammosini chuqur o‘rganishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023-yil.
2. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6-son 70-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
4. G‘oziyev E., Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994-yil
5. Халпери Д., Психология критического мышления. Питер: 2000.
6. Volkov B.S., Kasbiy yo‘naltirish asoslari. Moskva: ilmiy loyiha, “MIR” jamg‘armasi 2007-yil.
7. Маркова А.К. “Психология профессионализма”. М.: Международ-ный гуманитарный фонд “Знание” 1996. 312 s.
8. Uzoqov A., “Harbiy pedagogika va psixologiya”. Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti. Harbiy ta’lim fakuleti. O‘quv-qo‘llanma, Buxoro 2022-yil. 143-155-b.
9. www.daraja.ilmiy.uz
10. www.psy.com.